


NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-avgust oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 816,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati, jahonning 65 ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hisssasi Rossiya Federatsiyasida (17,4 %), Kanada (16,6 %), Xitoy Xalq Respublikasida (16,5 %), AQShda (11,3 %) va Litvada (8,0 %) qayd etilgan.



**NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	142,2	38,8	103,4	17,4
Kanada	135,8	131,6	4,2	16,6
Xitoy Xalq Respublikasi	135,1	69,1	66,0	16,5
AQSh	92,3	0,7	91,6	11,3
Litva	65,2	9,7	55,5	8,0
Turkiya	51,2	25,0	26,2	6,3
Qozog'iston	40,5	10,2	30,3	5,0
Koreya Respublikasi	18,2	0,1	18,1	2,2
Chexiya Respublikasi	17,8	0,3	17,5	2,1
Turkmaniston	17,4	16,2	1,2	2,0

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Turkmaniston bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Turkmaniston, Afg'oniston va Qirg'iz Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSh, Litva, Turkiya, Koreya Respublikasi va Chexiya Respublikasi hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI
(2021- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
Tashqi savdo aylanmasi	816,3	111,2	100,0
MDH davlatlari	226,0	113,4	27,7
Boshqa davlatlar	590,3	110,4	72,3



**NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO'YICHA
TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI
(2021- yil yanvar-avgust, ming AQSh dollari)**

Tuman va shahar nomi	Tashqi savdo aylanmasi hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	816 347,1	111,2
Navoiy sh.	532 879,4	118,9
Zarafshon sh.	10 042,2	35,9
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	184 938,4	119,2
Konimex	1 667,9	44,6
Qiziltepa	14 100,2	46,8
Navbahor	19 252,7	71,5
Nurota	8 807,0	106,1
Tomdi	4 094,6	5,1 b.
Uchquduq	3 481,0	2,4 b.
Xatirchi	30 367,1	2,6 b.
Bo'linmaydigan hajm	6 716,6	-

2021- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasi hajmi 816,3 mln. AQSh dollarini 2020- yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ni tashkil qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Kanada (127,4 mln. AQSh dollari), Turkmaniston (15,0 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (5,8 mln. AQSh dollari) va Singapur (4,9 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	125,4	101,4	142,2
Eksport	26,4	22,6	38,8
Import	99,0	78,8	103,4
Saldo	-72,6	-56,2	-64,6
Kanada	0,4	79,0	135,8
Eksport	0,3	78,0	131,6
Import	0,1	1,0	4,2
Saldo	0,2	77,0	127,4
Xitoy Xalq Respublikasi	211,2	116,2	135,1
Eksport	47,8	28,0	69,1
Import	163,4	88,2	66,0
Saldo	-115,6	-60,2	3,1
AQSh	27,1	32,9	92,3
Eksport	0,1	0,1	0,7
Import	27,0	32,8	91,6
Saldo	-26,9	-32,7	-90,9
Litva	8,6	45,0	65,2
Eksport	3,4	2,7	9,7
Import	5,2	42,3	55,5
Saldo	-1,8	-39,6	-45,8
Turkiya	78,5	42,8	51,2
Eksport	12,2	19,6	25,0
Import	66,3	23,2	26,2
Saldo	-54,1	-3,6	-1,2
Qozog'iston	40,3	37,2	40,5
Eksport	5,5	5,0	10,2
Import	34,8	32,2	30,3
Saldo	-29,3	-27,2	-20,1


Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Koreya Respublikasi	77,9	42,4	18,2
Eksport	0,1	0,1	0,1
Import	77,8	42,3	18,1
Saldo	-77,7	-42,2	-18,0
Chexiya Respublikasi	13,5	6,4	17,8
Eksport	1,3	0,1	0,3
Import	12,2	6,3	17,5
Saldo	-10,9	-6,2	-17,2
Turkmaniston	10,6	15,0	17,4
Eksport	2,5	14,5	16,2
Import	8,1	0,5	1,2
Saldo	-5,6	14,0	15,0
Yaponiya	130,6	4,5	15,6
Eksport	5,9	0,2	-
Import	124,7	4,3	15,6
Saldo	-118,8	-4,1	-15,6
Ukraina	2,0	11,8	14,5
Eksport	1,3	1,6	0,9
Import	0,7	10,2	13,6
Saldo	0,6	-8,6	-12,7
Germaniya	145,2	35,4	10,1
Eksport	0,5	0,2	-
Import	144,7	35,2	10,1
Saldo	-144,2	-35,0	-10,1
Italiya	77,6	3,4	6,4
Eksport	-	-	-
Import	77,6	3,4	6,4
Saldo	-77,6	-3,4	-6,4

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Eron Islom Respublikasi	3,1	2,6	6,4
Eksport	1,8	-	1,3
Import	1,3	2,6	5,1
Saldo	0,5	-2,6	-3,8
Belarus Respublikasi	77,2	0,6	6,1
Eksport	0,4	0,3	1,1
Import	76,8	0,3	5,0
Saldo	-76,4	0,0	-3,9
Afg'oniston	0,6	0,6	5,8
Eksport	0,6	0,6	5,8
Import	-	-	-
Saldo	0,6	0,6	5,8
Singapur	1,6	3,2	4,9
Eksport	0,6	3,0	4,9
Import	1,0	0,2	-
Saldo	-0,4	2,8	4,9
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	5,6	3,4	4,0
Eksport	-	0,2	-
Import	5,6	3,2	4,0
Saldo	-5,6	-3,0	-4,0
Qirg'iz Respublikasi	14,9	32,9	3,6
Eksport	14,6	32,5	3,2
Import	0,3	0,4	0,4
Saldo	14,3	32,1	2,8

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-avgust oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 27,7 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKA
(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-avgust oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 110,4 % ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 72,3 % ni tashkil etdi.


NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-avgust)

Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi 325,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,2 % ni tashkil etdi.

Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (62,6 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (20,0 %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (6,8 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 4,7 %
- Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari - 6,8 %
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 0,5 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 62,6 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 20,0 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari - 0,1 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 2,8 %
- Xizmatlar - 2,5 %




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-avgust)

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	325,1	111,2	100,0	72,0	93,6	100,0	253,1	117,4	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,1	167,3	4,7	6,5	93,7	9,0	8,6	4,1 b.	3,4
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	22,2	118,3	6,8	19,6	112,5	27,2	2,6	192,9	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,6	131,5	0,5	0,3	2,3 b.	0,4	1,3	121,3	0,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	203,7	101,4	62,6	14,0	92,3	19,5	189,6	102,2	74,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	64,9	150,6	20,0	18,8	80,4	26,2	46,1	2,3 b.	18,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,5	19,0	0,1	0,1	52,2	0,1	0,4	16,2	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	8,9	67,5	2,8	8,9	68,2	12,3	0,1	32,5	0,1
Xizmatlar	8,2	2,1 b.	2,5	3,8	5,7 b.	5,3	4,4	135,1	1,7

2021- yilning yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2020- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning mos davriga nisbatan xizmatlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, noziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.



NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKA
(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)



Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-avgust oylarida eksport hajmi 325,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-avgust, % da)

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,5	3,1	4,7
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	6,8	6,4	6,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,2	0,4	0,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	63,1	68,7	62,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,3	14,8	20,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	3,6	0,8	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	0,4	4,5	2,8
Xizmatlar	3,1	1,3	2,5

2021- yil yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi 6,7 punktga oshib, 20,0 % ni, turli xil tayyor buyumlar 2,4 punktga oshib, 2,8 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO'YICHA EKSPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-avgust, ming AQSh dollari)

Tuman va shahar nomi	Eksport hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	325 091,1	111,2
Navoiy sh.	242 437,2	112,5
Zarafshon sh.	2 798,5	124,2
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	26 646,3	124,3
Konimex	172,4	17,6
Qiziltepa	8 161,4	39,7
Navbahor	13 553,6	78,4
Nurota	3 459,0	2,2 b.
Tomdi	712,9	165,0
Uchquduq	1 145,0	121,1
Xatirchi	24 497,1	3,5 b.
Bo'linmaydigan hajm	1 507,7	-

2021- yil yanvar-avgust oylarida eksport hajmi 325,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 111,2 % kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
Eksport hajmi	325,1	111,2	100,0
MDH davlatlari	72,0	93,6	22,1
Boshqa davlatlar	253,1	117,4	77,9




**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA
XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan eksport ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich 22,1 va 77,9 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-avgust, % da)



2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining 40,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (21,3 %), Rossiya Federatsiyasi (11,9 %), Turkiya (7,7 %), Turkmaniston (5,0 %), Qozog'iston (3,1 %) va Litva (3,0 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 92,5 % ni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi bir pog'onaga tushishi hisobiga, Kanada eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni 36 tani tashkil etdi.



**NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-avgust)**

Davlatlar	Ming AQSh dollari		2020- yilning yanvar-avgustiga nisbatan, % da	O'ri
	2020- y.	2021- y.		
Kanada	77 985,9	131 584,3	168,7	1
Xitoy Xalq Respublikasi	28 020,6	69 150,8	2,5 b.	2
Rossiya Federatsiyasi	22 623,7	38 811,4	171,6	3
Turkiya	19 567,4	24 959,2	127,6	4
Turkmaniston	14 516,7	16 231,4	111,8	5
Qozog'iston	5 016,1	10 177,1	2,0 b.	6
Litva	2 704,6	9 721,9	3,6 b.	7
Afg'oniston	572,3	5 805,7	10,1 b.	8
Singapur	3 023,4	4 894,5	161,9	9
Qirg'iz Respublikasi	32 541,8	3 207,3	9,9	10
Pokiston	358,9	1 481,4	4,1 b.	11
Tojikiston	562,5	1 406,2	2,5 b.	12
Eron Islom Respublikasi	-	1 304,3	-	13
BAA	796,2	1 197,7	150,4	14
Belarus Respublikasi	317,2	1 139,5	3,6 b.	15
Ukraina	1 553,9	921,4	59,3	16
AQSh	83,3	658,2	7,9 b.	17
Polsha	495,8	411,8	83,1	18
Chexiya Respublikasi	79,4	246,4	3,1 b.	19
Vetnam	-	175,1	-	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.




NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-avgust, mln AQSh dollari)

	Kanada		Xitoy Xalq Respublikasi		Rossiya Federatsiyasi		Turkiya	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	78,0	131,6	28,0	69,2	22,6	38,8	19,6	25,0
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	0,1	0,1	2,7	1,0	-	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	0,7	0,5	5,4	15,8	0,6	1,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	0,1	-	0,1	0,3	0,8	1,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	77,7	130,6	21,6	58,6	-	-	8,0	0,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	0,3	1,0	3,6	9,9	13,0	11,3	8,4	19,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	-	1,9	0,1	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	0,8	6,7	0,1	-
Xizmatlar	-	-	-	-	0,6	3,7	1,7	2,7



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 8,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,5 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,1 martaga oshdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (88,2 %), safarlar (turizm xizmatlari) (7,3 %), moliyaviy xizmatlar (4,0 %), va boshqa xizmatlar (0,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2021- yil yanvar-avgust, ming AQSh dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 8 225,4 ming AQSh dollar qiymatli 11 460,2 tonnadan ortiq meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2020- yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida 2,5 % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida 3 089,6 ming AQSh dollarini, Xatirchi tumanida 2 009,4 ming AQSh dollarini, Karmana tumanida 1 340,9 ming AQSh dollarini, Navbahor tumanida 669,2 ming AQSh dollarini va Navoiy shahrida 404,9 ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (39,5 %), Pokiston (18,0 %), Eron Islom Respublikasi (13,0 %) va Belarus Respublikasi (8,3 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar-avgust)

Davlatlar	2020- yil			2021- yil		
	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi *, % da	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi*, % da
Qozog'iston	1 404,7	693,1	9,4	6 765,6	3 243,6	39,5
Pokiston	48,0	72,0	1,0	468,5	1 481,2	18,0
Eron Islom Respublikasi	-	-	-	1 060,0	1 064,0	13,0
Belarus Respublikasi	628,8	317,1	4,3	1 086,9	684,4	8,3
Qirg'iz Respublikasi	1 458,2	3 129,1	42,3	468,2	597,6	7,3
Afg'oniston	521,8	118,2	1,6	672,3	543,3	6,6
Rossiya Federatsiyasi	3 772,3	2 511,6	34,0	174,4	254,1	3,1
Iroq	208,1	212,6	2,9	110,9	123,8	1,5
Xitoy Xalq Respublikasi	51,2	50,4	0,7	128,0	119,5	1,4
Estoniya	108,0	20,2	0,3	232,0	42,9	0,5
Latviya	173,4	23,3	0,3	220,8	36,2	0,4
Ukraina	59,6	32,7	0,4	51,9	31,6	0,3
Litva	-	-	-	20,7	3,2	0,1
Boshqa davlatlar	235,4	215,8	2,8	-	-	-

*-qiymat ifodasida


NAVOIY VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-avgust)

2021- yil yanvar-avgust oylarida import hajmi 491,2 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (57,4 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (15,2 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (10,9 %) ga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 3,3 %
- Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari - 0,7 %
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 0,1 %
- Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar - 0,1 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 10,9 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 15,2 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari - 57,4 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 7,1 %
- Xizmatlar - 5,2 %

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi 465,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 25,5 mln. AQSh dollariga yetdi.



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-avgust)


XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	491,2	111,3	100,0	154,1	125,9	100,0	337,1	105,7	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16,1	2,7 b.	3,3	14,0	4,0 b.	9,1	2,1	89,1	0,6
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	3,7	136,6	0,7	1,9	183,1	1,2	1,8	108,1	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,6	166,5	0,1	0,4	4,4 b.	0,3	0,2	84,0	0,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar	0,3	-	0,1	0,2	-	0,1	0,1	44,1 b.	0,02
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	53,5	96,1	10,9	12,9	109,1	8,4	40,6	92,6	12,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	74,6	125,2	15,2	62,9	179,4	40,8	11,8	47,9	3,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	282,2	103,9	57,4	30,4	58,4	19,7	251,8	114,7	74,7
Turli xil tayyor buyumlar	34,7	117,6	7,1	27,3	184,1	17,7	7,3	50,1	2,2
Xizmatlar	25,5	157,9	5,2	4,1	102,2	2,7	21,4	176,0	6,4

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunolari (57,4 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (15,2 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (10,9 %), shuningdek MDH mamlakatlarida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (40,8 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (19,7 %) ga to'g'ri keldi, boshqa xorijiy mamlakatlarga ham eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (74,7 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (12,0 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2020- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (2,7 b. %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (66,5 %), xizmatlar (57,9 %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (36,6 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (25,2 %), turli xil tayyor buyumlar (17,6 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (3,9 %) o'sgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)



Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-avgust oylarida import hajmi 491,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI
(yanvar-avgust, ulush, % da)

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,8	1,3	3,3
Ichimliklar va tamaki	0,2	-	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,4	0,6	0,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,6	0,1	0,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar	-	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5,9	12,6	10,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,3	13,5	15,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	70,8	61,5	57,4
Turli xil tayyor buyumlar	6,8	6,7	7,1
Xizmatlar	1,2	3,7	5,2

2021- yil yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda 2020- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi 1,3 % dan 3,3 % gacha, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarida importning ulushi 13,5 % dan 15,2 % gacha, xizmatlarda esa 3,7 % dan 5,2 % gacha o'sdi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLARI BO'YICHA IMPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-avgust, ming AQSh dollari)

Tuman va shahar nomi	Import hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	491 256,0	111,3
Navoiy sh.	290 442,2	124,9
Zarafshon sh.	7 243,7	28,2
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	158 292,1	118,4
Konimex	1 495,5	54,2
Qiziltepa	5 938,8	62,3
Navbahor	5 699,1	59,2
Nurota	5 348,0	79,7
Tomdi	3 381,7	9,2 b.
Uchquduq	2 336,1	4,9 b.
Xatirchi	5 870,0	119,9
Bo'linmaydigan hajm	5 208,8	-

2021- yil yanvar-avgust oylarida import hajmi 491,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ni tashkil etdi.




NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
Import hajmi	491,2	111,3	100,0
MDH davlatlari	154,1	125,9	31,4
Boshqa davlatlar	337,1	105,7	68,6

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich 31,4 va 68,6 % ni tashkil etdi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva, Qozog'iston, Turkiya va Koreya davlatlari) jami importning 79,6 % ini tashkil qiladi, bu 391,1 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-avgust, % da)



Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi va Litvadan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasi umumiy import hajmida 21,0 % ulushi bilan AQSh davlatini 18,7 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-avgust)**


Davlatlar	Ming AQSh dollari		2020- yilning yanvar-avgustiga nisbatan, % da	O'rni
	2020- y.	2021- y.		
Rossiya Federatsiyasi	78 846,8	103 387,0	131,1	1
AQSh	32 760,0	91 635,7	2,8 b.	2
Xitoy Xalq Respublikasi	88 170,5	65 971,8	74,8	3
Litva	42 252,0	55 473,1	131,3	4
Qozog'iston	32 187,6	30 303,5	94,1	5
Turkiya	23 230,7	26 187,0	112,7	6
Koreya Respublikasi	42 253,1	18 136,6	42,9	7
Chexiya Respublikasi	6 343,3	17 549,5	2,8 b.	8
Yaponiya	4 320,8	15 613,8	3,6 b.	9
Ukraina	10 155,4	13 581,7	133,7	10
Germaniya	35 243,7	10 069,2	28,6	11
Italiya	3 435,9	6 396,2	186,2	12
Eron Islom Respublikasi	2 583,7	5 062,9	196,0	13
Belarus Respublikasi	333,5	5 012,5	15,0 b.	14
Kanada	963,3	4 249,2	4,4 b.	15
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	3 163,2	3 972,1	125,6	16
Estoniya	6 846,0	2 863,9	41,8	17
Fransiya	1 077,3	2 560,0	2,4 b.	18
Hindiston	2 688,7	1 721,8	64,0	19
Indoneziya	2 660,7	1 691,6	63,6	20

2021- yil yanvar-avgust oylari yakuni bo'yicha 60 ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

2021- yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 25,5 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 5,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 157,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi qurilish xizmatlari (67,0 %) va transport xizmatlari (20,7 %) dan iborat bo'ldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2021- yanvar-avgust, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**

Tel.: (99879) 222-04-36